

AQLI ZAIF BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN KORREKSION ISHLAR VA ULARNI ZAMONAVIY TA'LIM ORQALI RIVOJLANTIRISH

Komiljonova Havojon Zokir qizi

Toshket Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali talabasi,

havojonkomiljonova@gmail.com

tel: 88-416 -04-20

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21032395>

Annotatsiya; Mazkur maqolada aqli zaif bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ishlarning mazmuni, ularning psixologik va ijtimoiy rivojlanishidagi o'rni hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalari orqali imkoniyatlarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, individual yondashuv, innovatsion metodlar, inkluziv ta'lim muhiti va interfaol pedagogik usullar yordamida bolalarning nutqi, tafakkuri, mustaqil fikrlashi hamda ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarini shakllantirishning samarali yo'llari tahlil qilingan. Maqolada korreksion ishlarning ta'lim jarayonidagi ahamiyati va zamonaviy pedagogik yondashuvlarning amaliy natijalari ilmiy asosda bayon etilgan.

Kalit so'zlar: aqli zaif bolalar, korreksion ishlar, maxsus pedagogika, inkluziv ta'lim, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, individual yondashuv, ijtimoiy moslashuv, rivojlantiruvchi ta'lim, pedagogik metodlar, psixologik qo'llab-quvvatlash.

Аннотация

В данной статье рассматриваются содержание коррекционно-педагогической работы с умственно отсталыми детьми, её значение в психическом и социальном развитии ребёнка, а также вопросы развития их способностей посредством современных образовательных технологий. Особое внимание уделено индивидуальному подходу, инновационным методам, инклюзивному обучению и интерактивным педагогическим технологиям, способствующим развитию речи, мышления, самостоятельности и социальных навыков детей. В статье научно обоснованы значение коррекционной работы в образовательном процессе и эффективность современных педагогических подходов на практике.

Ключевые слова: умственно отсталые дети, коррекционная работа, специальная педагогика, инклюзивное образование, современные образовательные технологии, индивидуальный подход, социальная адаптация, развивающее обучение, педагогические методы, психологическая поддержка

Annotation

This article discusses the content and significance of correctional and pedagogical work with intellectually disabled children, as well as the development of their abilities through modern educational technologies. The article highlights the importance of individual approaches, innovative methods, inclusive education, and interactive teaching strategies in improving children's speech, thinking, independence, and social adaptation skills. Furthermore, the practical effectiveness of modern pedagogical approaches and the role of correctional work in the education

Keywords: intellectually disabled children, correctional work, special pedagogy, inclusive education, modern educational technologies, individual approach, social adaptation, developmental

education, pedagogical methods, psychological support.nal process are scientifically analyzed and substantiated

Bugungi kunda alohida ta'limga ehtiyojiga ega bo'lgan bolalarni qo'llab – quvvatlash dolzarb masalalardan biridir. Aqli zaif bolalar bilan ishlash jarayoni nafaqat tibbiy , balki pedogogik , psixologik logopedik yordam ham muhim hisoblanadi. Bunday bolalarni jamiyatga moslashtirish va ularni mustaqil hayotga bo'lgan ko'nikmalarini oshirish va zamonaviy ta'limni asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Aqli zaiflik – bu bolalarning intellektual rivojlanishidagi barqaror buzilish bo'lib unda bolaning fikrlash, xotira , diqqat va nutq idrok jarayonlari sust rivojlangan bo'ladi. Aqli zaiflik tug'ma yoki keyinchalik turli omillar ta'sirida yuzaga kelishi mumkin. Aqli zaiflik to'rta darajaga ajratiladi . Yengil daraja- o'rta daraja- og'ir daraja – o'ta og'ir darajalarni o'z ichiga oladi. Aqli zaiflikni keltirib chiqaradigan asosiy sabablar : Homiladorik davridagi kasalliklar homiladorik davrni og'ir o'tishi, onaning turli kasalliklarga chalinishi, yuqumli kasalliklar va infeksiyalar aqli zaiflikni keltirib chiqarishi mumkin. Keyinchalik ortilgan aqli zaiflik paydo bo'lishi mumkin va uning kelib chiqish sabablari: Bosh miya jarohatlanishi , markaziy nerv tizimining zararlanishi va psixologik omillar misol bo'ladi.

Aqli zaif bolalar bilan olib boriladigan zamonaviy karreksion ishlar bolaning aqliy , nutqiy , ruhiy va ijtimoiy holatini rivojlanishini qo'llab- quvvatlashga qaratilgan ta'lim tizimi hisoblanadi. Bunday bolalar bilan ishlashda zamonaviy pedogogik , texnologiyalar interfaol metodlar va individual yondashuvlardan foydalanishga qaratilgan. [1]

INTERFAOL METOD:

- Bu metod orqali Bola mashg'ulotlarda faol ishtirok etadi. Pedagog bolaning yoshiga va bolaning ijtimoiy holatiga mos topshiriqlar va qiziqarli o'yinlardan foydalanadi.
- “RANGNI TOP” interfaol o'yini:
- “SHAKLNI JOYIGA QO'Y” interfaol o'yini:
- “QAYSI ORTIQCHA” interfaol o'yini;

Interfaol metodning samaradorligi:

Bolaning diqqati rivojlanadi, xotirasi mustahkamlanadi, fikrlashi faolashadi va mashg'ulotga qiziqishi ortadi. Korreksion ishlarning asosiy maqsadi bolaning imkoniyati rivojlantirish, mustaqil hayotga tayyorlash hamda jamiyatga moslashtirishdan iborat. Aqli zaif bolalar bilan ishlashda pedagog avvalo bolaning psixologik holati, qiziqishlari va rivojlanish darajasini o'rganishi kerak. Zamonaviy karreksion ishlar davomida o'yin texnologiyalari, multimedia , sensor mashqlar art - terapiya va didaktik o'yinlardan foydalaniladi.[3]

SENSOR RIVOJLANTIRUVCHI METODIKA.

Bu metodika bolaning sezgi organlari rivojlantirishga qaratilgan . Turli rang , shakl va buyumlar orqali bola atrof – muhitni yaxshiroq idrok qiladi.

- “SENSOR QUTILAR BILAN ISHLASH” :
- “YUMSHOQ VA QATTIQ BUYUMLARNI FARQLASH”:
- “QUM TERAPIYA”:

Sensor rivojlantiruvchi metodining samaradorligi:

Sensor metodika orqali bolaning sezgi faoliyati rivojlanadi, idrok qilish qabilyati oshadi , qo'l va oyoq matorikalari rivojlanadi. Bunday usullar bolaning mashg'ulotga bo'lgan qiziqishi yanada oshirishga yordam beradi.

Karreksion ishlarning ahamiyati: Bu rivojlanishida nuqsoni bo'lgan yoki qiyinchiligi bo'lgan bolalarning kamchiliklarini bartaraf etish va ularning , imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus pedagogik ,psixologik, logopedik ta'lim tizimidir. Karreksion ta'lim tizimida pedagoglar

alohida yordamga muhtoj bolalarga oddiy bolalardek emas balkiy individual ta'lim asosida ta'lim va tarbiya beradilar. Har bir bolaning imkoniyat darajasidan kelib chiqan holatda soda va tushunarli shaklda mashg'ulotlar olib boriladi; va pedagog har bitta bolaning yutug'ni rag'batlantirib boradi. Karreksion ta'limning ahamiyati juda katta hisoblanadi, chunki vaqtida olib borilgan karreksion mashg'ulotlar balalarning keying rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'satadi. Bola atrofdagilar bilan muloqotga qilishni o'rganadi, va o'z fikrini bayon qiladi. Shu bilan birga bolaning mashg'ulotlarga qiziqishi ortadi, va ruhiy holati yaxshilanadi va o'ziga bo'lgan ishonchi yanada ortadi. [2]

ART TERAPIYA METODI:

Art terapiya balaning hissiy holatini yaxshilash uchun qo'llaniladi. Bola rasm, bo'yoq va plastirin orqali o'z emotsiyalarni chiqara oladi.

- “RASM CHIZISH”;
- “PLASTIRIN YASASH”;
- “APLIKATSIYA TAYYORLASH”;

Art terapiya metodini samaradorligi;

Bolada qo'rquvni kamaytiradi, Bolani tinchlantiradi va ijodiy fikrlashini rivojlantirib o'ziga bo'lgan ishonchini yanada oshiradi.

Aqli zaif bolalar bilan olib boriladigan karreksion va zamonaviy metodlar:

- Yengil daraja aqli zaiflik bilan olib boriladigan metodlar ;

Bunday darajali bolalarga zamonaviy korreksion metodlar eng samarali natija beradi, chunkiy bunday bolalarda fikrlash, nutqidagi kamchiliklar nisbatan yengil bo'ladi. Bunday bolalar uchun quyidagi metodlar samarali foyda beradi.

- “INTERFAOL METOD”;
- “MANTASORI METOD”;
- “MULTIMEDIA TA'LIM”;
- “LOGOPEDIK MASHQLAR”;

NATIJADA: Bolaning nutqi rivojlanadi, mustaqil fikrlaydi va jamiyatga moslashishi yaxshilanadi.

- O'rta daraja aqli zaiflik bilan olib boriladigan metodlar;

Bunday darajali bolalarni rivojlanishi sustroq bo'ladi. Ammo muntazam korreksion ishlar orqali ijobiy natijaga erishish mumkin. Bunday bolalar uchun quyidagi metodlar samarali foyda beradi.

- “SENSOR RIVOJLANTIRISH”;
- “MUSIQA TERAPIYA”;
- “ODDIY INTERFAOL O'YINLAR”;

NATIJADA; Bolaning emotsional holati yaxshilanadi, atrofdagilarga bo'lgan reaksiyasi kuchayadi va oddiy topshiriqlarni bajarishga o'rganadi.

- Og'ir daraja aqli zaiflik bilan olib boriladigan metodlar:

Bunday darajali bolalarning rivojlanishi darajasi ancha sust. Bu holatda bolaning hayotiy faoliyati va ijtimoiylashuvini qo'llab - quvvatlash muhim ahamiyatga ega; Bunday bolalar uchun quyidagi metodlar samarali foyda beradi.

- “SENSOR TERAPIYA”;
- “REOLAKATSION MASHQLAR”;
- “HARAKATLI O'YIN”;

NATIJA: Bolaning kundalik hayotga boʻlgan koʻnikmalari yashilanadi va atrofdagilarga boʻlgan reaksiyasi kuchayadi.

Zamonaviy taʼlim orqali bolalarda mashgʻulotlarga boʻlgan qiziqish ortadi nutq va taffakur, rivojlanadi : Diqqat va xotira mustahkamlanadi. Anʼnaviy darslardan farqli ravishda zamonaviy metodlar va zamonaviy mashgʻulot jarayonlarining faol ishtirokchisiga aylanadi. Shuningdek logopedik va psixologik mashgʻulotlar zamonaviy taʼlimning ajralmas qismi hisoblanadi . Artikulyatsion mashqlar , nafas mashqlari , psixologik treninglar bolaning nutqini , muloqot qilish qobiliyatini oʻziga boʻlgan ishonchini yanada oshirishga yordam beradi.

Zamonaviy karreksion metodlar va taʼlim texnologiyalari : Aqli zaiflikning barcha darajalarida qoʻllaniladigan taʼlim tizimi hisoblanadi. Ammo ularning samaradorligi bolaning rivojlanish darajasiga va individual imkoniyatiga bogʻliq boʻladi.[2]

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, aqli zaif bolalarni korreksion va zamonaviy metodlar asosida rivojlantirish — bu nafaqat pedagogik vazifa, balki insonparvarlik, mehr va jamiyat oldidagi muhim masʼuliyatdir. Har bir bola oʻziga xos qobiliyat, ichki imkoniyat va his-tuygʻularga ega. Ularning rivojlanishida toʻgʻri yondashuv, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, individual taʼlim metodlari hamda psixologik qoʻllab-quvvatlash muhim oʻrin tutadi.

Bugungi kunda innovatsion metodlar, interfaol mashgʻulotlar, logopedik va psixokorreksion yondashuvlar orqali aqli zaif bolalarning fikrlash doirasi, nutqi, ijtimoiy moslashuvi va mustaqil hayotga tayyorgarligi sezilarli darajada rivojlanmoqda. Ayniqsa, mehrga asoslangan taʼlim muhiti bolaning oʻziga boʻlgan ishonchini oshirib, undagi yashirin imkoniyatlarni yuzaga chiqaradi. Chunki bunday bolalar uchun eng katta ehtiyoj — tushunilish, qoʻllab-quvvatlanish va qadrlanishdi.

Korreksion taʼlim jarayonida oʻqituvchi, ota-ona va mutaxassislarning hamkorligi alohida ahamiyat kasb etadi. Bola rivojida kichik yutuq ham katta natijaning boshlanishi boʻlishi mumkin. Shu sababli ularga sabr, eʼtibor va doimiy ragʻbat bilan yondashish zarur. Zamonaviy metodlar esa taʼlim jarayonini qiziqarli, samarali va bolaning imkoniyatiga mos tarzda tashkil etishga xizmat qiladi. Eng muhimi, jamiyatda bunday bolalarga nisbatan mehr-oqibat va ijobiy munosabatni shakllantirish lozim. Chunki har bir bola baxtli yashash, taʼlim olish va jamiyatda oʻz oʻrnini topish huquqiga ega. Ularning qalbiga yoʻl topa olgan inson esa kelajakni tarbiyalay oladi. Shunday ekan, aqli zaif bolalarni rivojlantirishga qaratilgan korreksion va zamonaviy metodlarni keng qoʻllash orqali biz nafaqat bir bolaning, balki butun jamiyatning kelajagiga hissa qoʻshamiz.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Poʻlatova P.M. Maxsus pedagogika asoslari. – Toshkent: Oʻqituvchi,
2. D.Sh. Korreksion pedagogika va logopediya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.2015.
3. Mamedova L.R. Imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy moslashtirish metodlari. – Toshkent, 2020.
4. Rasulov A.A. Korreksion taʼlimda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2021.